



BIR YOZUVDAN IKKINCHI YOZUVGA O'TISHDAN TARXIY SABOQ

Xushboqov Qobilbek Shokirovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6567854>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-may 2022

Ma'qullandi: 10- may 2022

Chop etildi: 17- may 2022

KALIT SO'ZLAR

Lotin, kirill, alifbo, qiyos,
savod, talaffuz, imlo

ANNOTATSIYA

Maqolada til bilan yozuv munosabatlari haqida batafsil yoritib berilgan. Turkiy tillarning bugungi holatga kelgunga qadar qaysi yozuvlardan foydalanilganligi haqida so'z yuritiladi.

Til bilan yozuv — chambarchas bog'liq, lekin mustaqil hodisalar. Inson paydo bo'lgandan beri til mavjud, ammo yozuv kishilik jamiyati taraqqiyotining so'nggi bosqichlarida yuzaga kelgan. Ijtimoiy hodisa sifatida til tabiiy yo'sinda paydo bo'lib, o'z taraqqiyot qonunlari bilan rivojlanadi. Til kishilarga uzoq davrlar yolg'iz o'zi xizmat qilgan, yozuv esa kishilarning ongli aralashuvi bilan ma'lum zaruriyat tufayli keyinchalik o'ylab topilgan. Fikr-ma'lumotni uzoq masofaga yetkazish, kelgusi avlodga qoldirish zaruriyati yozuvning paydo bo'lishiga olib keldi. Kishilik jamiyatining hozirgi taraqqiyot bosqichida ham, radio, televizor kashf etilganiga qaramay, yozuv o'z mavqeini yo'qotmadi, yozuvga ehtiyoj saqlandi.

Yozuvning o'zgarishini tilning o'zgarishi deb qaramaslik kerak. Til o'zicha va yozuv o'zicha o'zgaradi. Tilni daraxtga o'xshatsak, yozuv uning soyasi deyish mumkin. Daraxtning o'sishi yer, suv, havo, quyosh kabi omillarga bog'liq, soyaning bo'lishi esa

quyoshga va soya berishi mumkin bo'lgan narsaning borligiga bog'liq. Daraxt ma'lum shart-sharoitda mustaqil o'sadi. Daraxt soya berishi uchun esa osmon bulutsiz bo'lishi, quyosh nuri daraxtga tushib turishi shart. Agar osmon bulutli bo'lsa, daraxt mavjud bo'lishiga qaramay, soya bo'lmaydi. Til bilan yozuvning o'zaro munosabatini shunga o'xshatish mumkin. Yozuvning tilga birlashtirilishi ma'lum darajada shartli. Ayni bir tilga turli davrlarda boshqa-boshqa yozuvning xizmat qilgani buning eng ishonchli dalili. Masalan, qadimgi turkiy til o'z yozuviga ega bo'lgan. bu tilga mansub yodgorliklar bizgacha hatto bir necha alifboda yetib kelgan. Shu qadimgi turkiy tilning vorislaridan hisoblanuvchi o'zbek tiliga keyinchalik uch alifbo: bir necha marta isloh qilib foydalanilgan arab alifbosi, lotin alifbosi va rus (kirill) alifbosi xizmat qildirildi. Arab alifbosi asrimizning 20-yillari oxirigacha amal qildi. Keyin qisqa muddat lotin alifbosidan foydalandik, so'ngra sobiq Ittifoq miqyosida o'zbeklar



ham 1940- yildan boshlab rus (kirill) alifbosiga o'tkazildi. Hozir lotin alifbosiga o'tdik. Juda qisqa vaqt — 20-25 yil oralig'ida — alifbo ikki marta almashtirildi, lekin buning natijasida o'zbek tilida sezilarli o'zgarish yuz bergani yo'q. Nuqsonli alifbogina tilning tovush jihatiga juz'iy ta'sir qilishi mumkin. Agar alifbo to'g'ri tuzilsa, bunday juz'iy ta'sir ham bo'lmaydi.

Har bir alifbo qaysi tilga mansub bo'lsa, shu tildagi tovushlarni aks ettirishga xizmat qiladi: a harfi lotin alifbosida ham, rus alifbosida ham, o'zbek alifbosida ham bor. Bu harf barchasida bo'lgani bilan, o'zbek alifbosida o'zbek tovushini, rus alifbosida esa rus tovushini bildiradi. Bunday holat alifbodagi barcha harflarga xos, faqat tilda yo'q tovushga harf olinsagina, bunday harf o'zga til tovushini ko'rsatadi, shu tilniki bo'lmaydi.

«Rus alifbosini qabul qilish bilan o'zbek tili ruslashib ketdi» degan fikrda asos yo'q. Agar shunday bo'lsa, unda o'zbek tili arab istilosidan boshlab to lotin alifbosini olgunimizga qadar arablashib yotgan bo'lib chiqadi. Arablashib yotgan tilimiz lotin alifbosiga o'tish bilan birdan lotinlashib, rus alifbosiga o'tish bilan birdan ruslashib ketaveradimi? Bunday fikr hodisani sayoz tushunish oqibatidagina tug'ilishi mumkin. Asli bir tilning ikkinchi tilga ta'siri so'z olishda namoyon bo'ladi. Begona tovush (harf) olinma so'zlar tarkibida kelib qoladi; lekin bunday tovush ko'pincha o'zlashmaydi, so'z oluvchi til egalari bunday tovushni o'z tilidagi tovush bilan almashtiradi. Xullas, boshqa til ta'siri (masalan, ruslashish) alifbo tufayli emas, balki birinchi galda so'z olish tufayli voqe bo'ladi.

«Arab yozuvidan voz kechish natijasida ming yillik merosimizdan ayrildik»

mazmunidagi gaplar ham aytiladi. Bebaho merosimiz o'z joyida turibdi, alifbolar o'zgarishi bilan hech kim ularni yo'q qilib yuborgani yo'q. Buyuk bobokalonlarimiz turkiy tilda irod qilganlar-u, lekin o'z ijodlari mahsulini arab alifbosi bilan xatga tushirganlar. Biz bu bebaho merosimizni turkiygo'y bobokalonlarimiz turkiy tilda yaratganlari uchun yuksak qadrlaymiz, arab alif-bosida yozganlari uchun emas, albatta. Ma'lumki, allomalarimiz o'z irod mahsulini hatto arab, fors tillarida yozib qoldirganlar. Bu olamshumul asarlar arab, fors tillarida yozilgani bilan emas, balki o'z mazmuni bilan, o'sha davr ilmining yuksak cho'qqilarini aks ettirgani bilan qadrli.

Biz bebaho boy merosimizni ko'z qorachig'imizday asrashimiz va qunt bilan sinchiklab o'rganishimiz zarur. Bu obidalarni chuqur o'rganish — olimlarning, mutaxassislarining ishi. Dastxatda bitilib, bir yoki bir necha nusxada saqlanib qolgan bu qo'lyozmalarni keng ommaga qaysi alifboda yetkazishning ahamiyati yo'q hisob. Amaliy yozuv deb qaysi alifbo qabul qilingan bo'lsa, shu alifboda yetkazish — eng maqbul yo'l. Chunki maqsad — bu qo'lyozmalarining mazmunidan bahramand qilish. Faqat bu ishni amalga oshirishda xolis bo'lish kerak, qo'lyozmani aynan o'qishga erishib, keng jamoatchilikka ham shunday aynan yetkazish lozim. Buning uchun qo'lyozmani jiddiy o'rganadigan yaxshi mutaxassislar yetishtirmog'imiz darkor. Afsuski, bu borada doim oqsab kelamiz.

Rus alifbosidan voz kechish haqida gap boshlanganidan keyin jamoatchilikka ikki nuqtai nazar havola qilindi: 1) rus alifbosini talab darajasida o'zgartirib saqlab qolish, 2) rus alifbosidan voz kechib, avvalgi alifboga qaytish. Ko'pchilik ikkinchi nuqtayi nazarni yoqlab chiqdi shekilli, arab



alifbosini va lotin alifbosini targ'ib etish avj oldi. Ko'pchilik turkiyzabon millatlar bilan bahamjihat lotin alifbosiga qayta o'tish ma'qul topildi. Bunday qaror ijtimoiy-siyosiy jihatdangina emas, madaniy-ma'rifiy jihatdan ham to'g'ri.

Noto'g'ri talqinlarning oldini olish uchun shuni ta'kidlash lozimki, har bir alifbo qaysi til uchun yaratilgan bo'lsa, o'sha til uchun muqaddas; bunday alifboni almashtirish haqida emas, balki takomillashtirish haqida qayg'urish darkor. Ammo bizning oldimizda tamoman boshqacha masala — o'zga tillar uchun yaratilgan alifbolardan tilimiz uchun nisbatan yaroqlisini tanlash zaruriyati turdi. Bu masalani to'g'ri hal etish uchun har uch alifbodagi ijobiy hamda salbiy qirralarni aniqlashimiz va shularni hisob-kitob qilib, ma'qulini tanlashimiz lozim bo'ldi. Biz lotin alifbosini tanladik. Bun-da juda ko'p omillar hisobga olindi.

Birinchidan, jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotini, ayniqsa kelajagini o'ylab ish tutish lotin alifbosini tanlash to'g'ri bo'lishini ko'rsatdi: O'zbekiston Respublikasi dunyo miqyosiga chiqmoqda. G'arb sivilizatsiyasi tomon harakat qilar ekanmiz, alifboni tanlashda buni albatta hisobga olishimiz shart. G'arb dunyosidagi taraqqiy etgan millatlarning deyarli barchasi lotin alifbosi asosidagi milliy alifbolar bilan ish yuritadi. Umuman, lotin alifbosi dunyoda eng keng tarqalgan alifbo. Ikkinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan dunyo miqyosiga chiqish, xorijiy davlatlar bilan bevosita diplomatik munosabatlar o'rnatish dunyoda eng keng tarqalgan tillarni — ingliz, ispan, fransuz tillarini bilishimizni taqozo etmoqda. Lotin alifbosiga o'tishimiz o'zbeklarning g'arb tillarini o'rganishini yengillashtiradi. Bugungi kunda o'zbek tadbirkorlari, o'zbek

va rus tillaridan tashqari, albatta g'arb tilini (birinchi galda ingliz tilini) bilishi shart bo'lib qoldi, aks holda samarali faoliyat ko'rsata olmaydi.

Uchinchidan, lotin alifbosiga o'tish masalasini birgina o'zbeklar ko'tarib chiqqani yo'q, balki ko'pchilik turkiyzabon millatlarga qarab ish tutish lozimligi ham lotin alifbosini tanlashimizni o'z-o'zidan hal etib qo'ydi.

Shu yerda yana bir holatni ta'kidlash o'rinli. Avvallari alifbo-ni almashtirish yuqoridan berilgan ko'rsatma bilan amalga oshirilgan bo'lsa, bu gal dastlab ziyolilarimizning o'zi tashabbus ko'rsatdi va bu tashabbusni hukumatimiz qo'llab-quvvatladi.

Masalan, yaqinda Qozog'iston prezidenti Nursulton Nazarboyev qozoq yozuvining lotin alifbosiga o'tishi to'g'risida e'lon qilganidan so'ng bu mavzu qozog'istonliklar orasida katta muhokama va bahslarga sabab bo'lmoqda. Ta'kidlash joizki, mazkur islohotning tarafdorlari ham, bunga qarshi bo'layotganlar ham talaygina. Qozog'iston internet saytlari biri O'zbekistondagi lotin yozuviga o'tish jarayonini tahlil qilib shunday yozadi:

"1993-yilda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Lotin grafikasiga asoslangan o'zbek alifbosini kiritish to'g'risida"gi qonunni imzolagan.

Dastlab yangi alifboga o'tish 2000-yilga borib yakunlanishi rejalashtirilgan edi, biroz vaqt o'tgach uning muddati 2005-yilgacha uzaytirildi, keyin esa 2010-yilga. Biroq 2015-yilga kelib ham O'zbekistonda lotin yozuviga o'tish jarayoni to'liq tugallanmadi: ta'lim sohasi va qisman ish yuritish lotin yozuviga o'tkazilgan, lekin gazeta va jurnallar kirill yozuvida chiqishda davom etmoqda, 70 foizga yaqin adabiyot kirill yozuvida chop etiladi. Reklama, televideniye hamda internet tarmoqlarida



ham kirill, ham lotin yozuvidan foydalaniladi. Shunday ekan, O'zbekistonda kirilldan lotin yozuviga o'tish jarayoni hali o'z nihoyasiga yetmagan", - deyiladi nashrda.

Turkmanistonda ham yozuv uchun arab alifbosi qo'llangan. Afg'oniston, Iroq va Eron turkmanlari avvalgidek arab yozuviga asoslangan xatdan foydalanishadi.

Inqilobdan keyin mutaxassislar lotin yozuvini targ'ib qila boshlashgan, biroq 30-yillar oxirida butun sho'roda yozuvlarni kirillashtirish jarayoniga start berilgandi. 1939-yilning yanvarida Ashxobod o'qituvchilari turkman yozuvini kirillchaga o'tkazish tashabbusi bilan chiqishgan. Shu tariqa Til va adabiyot ilmiy-tadqiqot institutiga yangi alifbo tuzish loyihasini tuzish vazifasi topshirilgan. 1940-yilning aprelida alifbo loyihasi chop etilgan.

1990-yillar boshida Turkmanistonda lotin yozuviga o'tish masalasi ko'tarilgan. Lotin yozuvi asosidagi yangi alifbo kiritilgan, biroq 90-yillarda alifbo ikki marta o'zgardi, bu esa ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatdi.

Turkmanistonda kirill yozuvidan lotinga o'tish ancha qat'iy va keskin kechgani uchun bunday burilish ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan, birinchi sinf o'quvchilari yangi lotin yozuvini o'rganishgan, ammo keyingi yildayoq kirillchani o'rganishga majbur bo'lishgan, zero 2-sinf o'quvchilarining yangi yozuvdagi darsliklari tayyor bo'lmagan. Islohot yo'lga qo'yilganidan keyin 5-6 yil davomida shunday vaziyat kuzatilgan.

Ozarboyjon tilida uch rasmiy alifbo tizimi mavjud: Ozarboyjonda - lotin, Eronda - arab, Rossiyada - kirill yozuvi. 1922-yilga qadar ozarboyjonlar qo'shimcha belgilarga ega bo'lgan arab xatidan foydalanishgan.

XIX asr o'rtalarida ozarboyjonlar arab yozuvidan lotinga o'tish masalasini ko'tarishgan. Biroq bu faqat 1922-yilda ro'y bergan, 1925- yilda esa lotin alifbosi arab alifbosiga parallel ravishda rasmiy kuchga kirgan.

Biroq 1939-yilning may oyida kirill yozuviga o'tish muhokamasi boshlandi va shu yilning oxiridayoq o'tish jarayoniga start berildi.

Mustaqillik qo'lga kiritilgach, 1992- yildan boshlab lotin alifbosiga bosqichma-bosqich o'tila boshlandi va 2001- yilda bu jarayon nihoyasiga yetdi.

Boltiq bo'yi respublikalariga kelsak, ular 1904-yildan boshlab lotin alifbosini qo'llay boshlashdi va kirill yozuvi targ'iboti muvaffaqiyatli yakun topmadi. Hatto sovet davrida ham Boltiq bo'yi respublikalarida lotin yozuvidan foydalanilgan.

Lotin yozuviga o'tishda Turkiya eng yorqin misol bo'la oladi. Turkklar 1928-yildayoq lotin alifbosiga rasman o'tishgan. Yangi yozuvga to'liq o'tish uchun 30 yil kerak bo'lgan. Axir turklar ham 1928- yilga qadar, barcha turkiy xalqlar kabi, arab alifbosidan foydalanishgan. Islohotlar Otaturk rahbarligi ostida o'tgan.

Konservativ va diniy raqiblar arab yozuvidan chekinishga qarshilik qilishgan. Ular lotin yozuvining qabul qilinishi Turkiyaning katta islom olamidan uzilishga va an'anaviy qadriyatlarning o'zgarishiga olib keladi, deb hisoblashgan.

Shunda alternativ variant sifatida arab alifbosi taklif etilgan, faqat turk tiliga xos ba'zi tovushlarni ifodalash uchun qo'shimcha harflar kiritilgan.

Biroq Turkiya lotin yozuviga o'tishni muvaffaqiyatli yakunladi va bugun u bu masalada turkiy xalqlar uchun ijobiy namuna bo'la oladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi –T.: O'qituvchi, 2002.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining imlo lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1995.
1. Begmatov E., Madvaliyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati. –T.: Akademnashr, 2013.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. –T.: Universitet, 1999. –B. 3.
3. O'zbekiston ensiklopediyasi. T., 2007.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining imlo lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1995.
5. Begmatov E., Madvaliyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati. –T.: Akademnashr, 2013.
6. Falsafa, qisqacha izohli lug'at. - Toshkent: Sharq, 2004. - B. 18.